

## TILNING INSON OLIY PSIXOLOGIK FUNKSIYALARIGA TA'SIRI. \

### XOTIRA, DIQQAT VA NUTQ

**Ro'zmetova Mehriyo Nuraddin qizi**  
**Urganch davlat universiteti o'qituvchisi**  
**e-mail:**  
[ruzmetovamexriyo.01@gmail.com](mailto:ruzmetovamexriyo.01@gmail.com)

**Annotatsiya:** Til orqali tafakkurini namoyon qilish faqat insonga xos bo'lgan xususiyat. Va aynan insonning oliy psixologik funksiyalari shakllanishi va namoyon bo'lishida so'zlar eng muhim o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada tilning mana xotira, diqqat va nutq shakllanishiga qanday ta'sir qilishi, bu funksiyalar yaxshi shakllanishida tilni qanday ishlatish va bevosita tafakkur va til bog'liqliklari tahlil qilingan. Bundan tashqari, Muloqot psixologiyasidagi asosiy vosita so'zlar va iboralar, kundalik hayotda ishlatadigan gaplarning ta'sir doirasi muhokama ostiga olingan.

**Аннотация :**Проявление мышления через язык является уникальной особенностью человека. Именно слова играют важнейшую роль в формировании и проявлении высших психологических функций человека. В данной статье анализируется влияние языка на развитие памяти, внимания и речи, а также рассматриваются способы эффективного использования языка для их полноценного формирования. Кроме того, обсуждаются взаимосвязи между мышлением и языком, а также роль слов и выражений как основных средств коммуникации в психологии общения и их воздействие в повседневной жизни.

**Annotation:**The manifestation of thinking through language is a unique characteristic of humans. Words play a crucial role in the formation and expression of higher psychological functions. This article analyzes how language influences the development of memory, attention, and speech, and explores effective ways of using language to enhance these functions. It also examines the interrelation between

thinking and language, as well as the role of words and expressions as key tools of communication psychology and their impact in everyday life.

**Kalit soʻzlar:** til, diqqat, xotira, nutq, oliy psixologik funksiyalar, til va tafakkur, psixologik taʼsir

**Ключевые слова:** язык, внимание, память, речь, высшие психические функции, язык и мышление, психологическое воздействие.

**Keywords:** language, attention, memory, speech, higher psychological functions, language and thinking, psychological impact

## KIRISH

Insonni boshqa tirik mavjudotlardan farqlab turadigan asosiy xususiyatlardan biri — bu til va tafakkurdir. Til inson tafakkurining tashuvchisi, uni shakllantiruvchi va namoyon etuvchi vosita sifatida oliy psixologik funksiyalar tizimida markaziy oʻrinni egallaydi. Oliy psixologik funksiyalar — bu ongli, ixtiyoriy, ijtimoiy jihatdan vositalashgan ruhiy jarayonlar boʻlib, ular orasida xotira, diqqat va nutq eng muhimlaridandir. Ushbu maqolada tilning inson oliy psixologik funksiyalariga taʼsiri, xususan, xotira, diqqat va nutq shakllanishi hamda ularning oʻzaro aloqadorlik mexanizmlari tahlil qilinadi.

Psixologiyada diqqat va nutqning oʻzaro taʼsiri nafaqat bilim olish jarayonida, balki shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida ham asosiy omil sifatida qaraladi. Chunki inson soʻz orqali nafaqat fikrini bildiradi, balki oʻz diqqatini boshqarish, eʼtiborni muhim maʼlumotlarga qaratish va muloqot jarayonini ongli ravishda tashkil etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

## 1. Til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi

Til va tafakkur o‘rtasidagi aloqadorlik qadimdan falsafiy va psixologik muhokama mavzusi bo‘lib kelgan. Til tafakkurning ifoda shakli, tafakkur esa tilning mazmuniy asosi sifatida namoyon bo‘ladi. V. V. Vigotskiy bu borada “til – tafakkurning vositachisi” deb ta’rif beradi. Unga ko‘ra, inson tafakkuri so‘zsiz mavjud bo‘lolmaydi, chunki so‘z tafakkur jarayonini tashqi shaklga chiqaradi.

Til orqali inson o‘z fikrlarini nafaqat ifodalaydi, balki ularni shakllantiradi, tartibga soladi, ularni ijtimoiy muhitda o‘zlashtiradi. Shunday qilib, til – bu tafakkurning ijtimoiy mexanizmi, tafakkur esa tilning ichki mazmunidir.

“Tafakkur bo‘lmasa nutq til bo‘lishi mumkin emas, til materiali bo‘lnasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi” – [1.240].

## 2. Tilning oliy psixologik funksiyalar shakllanishidagi o‘rni

Oliy psixologik funksiyalar, Vigotskiy ta’limotiga ko‘ra, avvalo ijtimoiy faoliyatda, ya’ni muloqot jarayonida shakllanadi. Bola til vositasida atrofdagi insonlar bilan muloqot qilarkan, asta-sekin nutqiy vositalar orqali o‘z ongli faoliyatini boshqarishni o‘rganadi. Til ijtimoiy vosita sifatida insonning ichki dunyosiga kirib, uni ichki nutq shakliga aylantiradi va shu orqali tafakkur jarayonini tartibga soladi.

Tilning oliy psixik funksiyalar shakllanishidagi o‘rni uch bosqichda namoyon bo‘ladi:

1. Ijtimoiy bosqich – til muloqot vositasi sifatida ishlatiladi.
2. Individual bosqich – til shaxs tomonidan o‘zlashtirilib, ichki nutqqa aylanadi.
3. Ongli boshqaruv bosqichi – til psixik jarayonlarni boshqaruvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

## 3. Til va xotira o‘zaro ta’siri

Xotira insonning o‘tmishdagi tajribalari, bilimlari, his-tuyg‘ulari va obrazlarini saqlovchi murakkab psixik jarayondir. Til xotiraning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi asosiy vositadir.

Soʻzlar yordamida inson oʻz tajribasini semantik tizim sifatida saqlaydi: har bir soʻz muayyan tushuncha, voqea yoki hissiy holat bilan bogʻlangan. Shu sababli, til xotirani kodlash, saqlash va eslab qolish jarayonlarini osonlashtiradi. Masalan, maʼlum bir voqeani soʻz bilan ifodalash, uni eslab qolishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Til, shuningdek, mantiqiy xotirani ham rivojlantiradi, chunki soʻzlar va iboralar oʻrtasidagi mantiqiy bogʻlanishlar inson tafakkurida yaxlit tizim hosil qiladi.

“Masalan, men oshxona tomon yoʻl olaman. Yoʻlda oʻrtogʻim uchrab menga “oshxona yopilgan”, deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni maʼlum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib boshqa oshxona tomon yoʻl olaman. Bu yerda til oʻzining yana bir boshqa vazifasini bajaryapti”. [2.33]

#### **4. Til va diqqat oʻrtasidagi bogʻliqlik mexanizmlari**

Diqqat – bu ongning maʼlum bir obʻektga yoʻnaltirilgan va barqaror holatidir. Til diqqat jarayonini boshqaruvchi va uni tartibga soluvchi vosita sifatida muhim rol oʻynaydi.

Masalan, inson oʻz diqqatini muayyan vazifaga qaratish uchun oʻziga ichki nutq orqali koʻrsatmalar beradi (“hozir diqqatni jamla”, “eʼtibor ber”, “asosiy fikrni top”). Bu koʻrsatmalar — verbal oʻz-oʻzini boshqarish shakli boʻlib, diqqatni mustahkamlashning samarali vositasidir. “Baʼzi odamlarda boshqalarning soʻziga parvo qilmaslik va quloq solmaslik xunuk bir odatga aylanib ketadi. Bu ham diqqat bilan bogʻliq”. [3.192.]

#### **5. Til va nutq shakllanishining psixologik asoslari**

Nutq insonning kommunikativ faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlib, u tilni amalda qoʻllash jarayonidir. Psixologik jihatdan nutq – bu tafakkurning tashqi ifodasi, til esa bu ifoda vositasidir.

Vigotskiy va Luriyaning tadqiqotlariga koʻra, bola nutqni oʻzlashtirar ekan, u dastlab tashqi nutq shaklida namoyon boʻladi, keyin esa ichki nutqga aylanadi. Ichki nutq tafakkurning ichki mexanizmlarini ifodalaydi va insonning oʻz xatti-harakatlarini boshqarishiga yordam beradi.

#### **6. Zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy qarashlar**

XX asrda til va tafakkur o‘zaro munosabatini o‘rgangan olimlar orasida Lev Vigotskiy, A. R. Luriya, A. N.

Leontyev, Jean Piaget, Noam Chomsky va boshqalarni tilga olish mumkin.

Vigotskiy tilni oliy psixik funksiyalarni vositalashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida ko‘radi. Luriya tilni miyaning funktsional tizimi sifatida tahlil qilib, til faoliyati frontal qismlar bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Piaget esa til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni bola intellektual rivojlanish bosqichlari orqali izohlaydi.

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlarda til faoliyati nafaqat muloqotni, balki idrok, diqqat va xotirani ham shakllantirishi isbotlangan.

### **7. Tilning psixologik ta’siri va muloqotdagi roli**

Til shaxslararo muloqotning asosiy vositasi sifatida insonning hissiy holatiga, motivatsiyasiga va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir so‘z ma’lum emosional energiyaga ega bo‘lib, u inson kayfiyatini o‘zgartirishi, diqqatni yo‘naltirishi yoki xotirada iz qoldirishi mumkin.

Psixologiyada “so‘zning ta’sir kuchi” atamasi mavjud. Masalan, iliq so‘zlar (rag‘bat, dalda, tasalli) insonning ichki holatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi, salbiy so‘zlar esa stress va xavotirni kuchaytiradi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Diqqat — bu ongning tanlab yo‘naltirilgan va ma’lum vaqt davomida barqaror saqlanib turadigan faol holatidir. Diqqatning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Barqarorlik — diqqatning ma’lum vaqt davomida bir obyektga qaratilganligi;
- Ko‘chuvchanlik — diqqatning bir faoliyatdan boshqasiga o‘tish qobiliyati;
- Hajm — diqqat doirasida bir vaqtning o‘zida necha obyektни qamrab olish imkoniyati;
- Bo‘linuvchanlik — diqqatni bir necha faoliyat o‘rtasida taqsimlash qobiliyati.

Diqqatning bu xususiyatlari nutq faoliyatida ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, nutq jarayonida diqqatning barqarorligi so‘zlarni izchil ifoda etish, mantiqiy tuzilmani saqlashga yordam beradi.

### **Nutqning psixologik mohiyati**

Nutq — inson tafakkurining ifoda shakli bo‘lib, u fikrlash jarayoni bilan uzviy bog‘langan. Nutq quyidagi turlarga ega:

- Tashqi (og‘zaki yoki yozma) nutq — muloqotda fikrni ifoda etuvchi shakl;
- Ichki nutq — fikrlash jarayonida so‘zlarning ichki qayta ishlanishi;
- Monologik va dialogik nutq — yakka va o‘zaro muloqotdagi nutq shakllari.

Nutqning to‘g‘ri shakllanishi uchun inson diqqatni maqsadga yo‘naltira olishi zarur. Diqqat susaysa, nutqda mantiqsizlik, so‘zlarning takrorlanishi yoki fikr uzilishi kuzatiladi.

### **Diqqat va nutq o‘zaro bog‘liqligi mexanizmlari**

Diqqat va nutq bir-birini to‘ldiruvchi ikki jarayondir. Diqqatning mavjudligi nutqni mazmunan boyitadi, nutq esa diqqatni boshqarish vositasiga aylanadi. Masalan, o‘qituvchi dars jarayonida nutq orqali o‘quvchilarning diqqatini kerakli obyektga qaratadi; o‘quvchi esa o‘z diqqatini jamlab, o‘qituvchining nutqini tushunadi.

Nutqning sintaktik tuzilishi va mantiqiy ketma-ketligi diqqatning faol ishtirokida shakllanadi. Shuningdek, diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz shakllari nutqning turli bosqichlarida faol ishtirok etadi. Ixtiyorsiz diqqat — eshitilgan so‘zga tabiiy javob qaytarish shaklida, ixtiyoriy diqqat esa ongli ravishda nutqni nazorat qilish orqali namoyon bo‘ladi.

### **L.S. Vigotskiy va A.R. Luriya qarashlari**

L.S. Vigotskiyga ko‘ra, bola diqqatini boshqarishni aynan nutq orqali o‘rganadi. Dastlab bola kattalarning nutqiga ixtiyorsiz e‘tibor qaratadi, keyinchalik esa o‘z nutqi yordamida diqqatini boshqaradi. Shunday qilib, nutq — diqqatni ixtiyoriy boshqarish vositasiga aylanadi.

A.R. Luriya esa bu jarayonni neyropsixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, diqqat va nutqning o‘zaro aloqasi miyaning oldingi bo‘limlari (frontal sohalar) faoliyati bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, nutq jarayonida diqqatni boshqarish, xatolarni tuzatish va fikrni mantiqan ifodalash frontal tizimlar nazoratida amalga oshadi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining nutqi o‘quvchilar diqqatini shakllantiruvchi asosiy omildir. Ravon, izchil va ifodali nutq o‘quvchi ongini faol holatga keltiradi. O‘quvchilarning diqqatini saqlash uchun nutqning ohangdorligi, mazmuniy aniqligi va hissiyligi muhimdir.

Shuningdek, muloqot jarayonida diqqat va nutqning uyg‘unligi insonlar o‘rtasidagi tushunishni, hamdardlikni va ishonchni mustahkamlaydi. Diqqatli tinglovchi bo‘lish ham, so‘zlovchi sifatida fikrni aniq ifodalash ham bu uyg‘unlik natijasidir.

## XULOSA

Til inson tafakkurining vositasi, oliy psixologik funksiyalarining asosiy shakllantiruvchisidir. Xotira, diqqat va nutq kabi psixik jarayonlar til vositasida rivojlanadi, boshqariladi va ijtimoiy muhitda mustahkamlanadi. Til — bu nafaqat muloqot vositasi, balki inson tafakkurining tuzilmasini belgilovchi, ong faoliyatini boshqaruvchi tizimdir. Diqqat va nutq inson tafakkurining ikki ajralmas komponentidir. Ularning uyg‘unligi tafakkurning aniqligi, muloqotning samaradorligi va shaxsning intellektual rivojlanish darajasini belgilaydi. Diqqatning to‘g‘ri boshqarilishi nutqni boyitadi, nutq esa diqqatni ixtiyoriy boshqarish vositasiga aylanadi. Shu bois, ta’lim, psixologik mashg‘ulot va kundalik muloqotlarda diqqatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan nutq mashqlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2008. –B. 240
2. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. Toshkent, 2006. –B. 33.
3. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent, 2008. –B. 192.
4. Leontiev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. — Englewood Cliffs, 1978.

- 5 Piaget J. The Language and Thought of the Child. — London: Routledge, 1959.
6. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. — MIT Press, 1965.
7. Karimov, I. Psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
8. Vohidov, M. Til va tafakkur muammolari. — Toshkent: Fan, 2010.
9. Yusupova, N. Oliy psixologik funksiyalar psixologiyasi. — Toshkent: TDPU, 2018.
10. Anderson, J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. — New York: W. H. Freeman, 2015.